Fanlar akademiyasida sarhisob tadbiri bo‘lib o‘tdi (video)

TOSHKENT – Oldinroq O‘zbekiston fanlar akademiyasida o‘nga yaqin institut rahbarlari, olimlari va tadqiqotchilari ishtirokida matbuot anjumani bo‘lib o‘tgani xabar qilingan edi.

Anjuman prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 6 aprel kuni O‘zFA O‘simlik moddalari kimyosi instituti olimlari bilan o‘tkazgan uchrashuvida belgilangan topshiriqlar asosida amalga oshirilgan ishlar mavzusiga bag‘ishlangan edi.

Turon24 tadbirdan tayyorlangan videolavhani taqdim etadi.